Aktamova Vasila Uktamovna, Axtamova Umida Uktamovna	
IOT VA AI INTEGRATSIYASI ORQALI SUVNI TEJASH.....	475
Raxmatullayeva Nozima Shodiqulovna	



“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ZARURIYATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Olmasov Umidjon G‘iyosovich

Iqtisodiyot fakulteti talabasi
raxmatovgiyos67@gmail.com

Salamov Ibroxim

SamDVMChBU, Iqtisodiyot va menejment kafedrası dotsenti, i.f.n.
ibrokhimsalamov@gmail.com

Nurmanov Sherzod Xujayarovich

kafedra assistenti
nurmanov4730@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy resurslarning cheklanganligi sharoitida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati asoslangan bo‘lib, Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan “yashil iqtisodiyot”ga tish tamoyillari va amalga oshirish dastaklari qiyosiy tahlil etilgan. “Yashil iqtisodiyot”ning axborot resurslari va “yashil iqtisodiyot” uchun inson kapitalini rivojlantirishning dolzarb masalalari tadqiq qilingan “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati, omillari, tamoyillari va indikatorlari tahlil etilgan. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini moliyalashtirish, “yashil energetika”ni barqaror rivojlantirish, ekologik siyosat va uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning ustuvor yo‘nalishlari va xorij tajribasidan Bolgariya mamlakati misolida hamda Singapur mamlakatidagi yashillik rasmlari keltirilgan, modellari, O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining maqsadi, vazifalari, rivojlanish bosqichlari va ustuvor yo‘nalishlarining mazmuni bayon etilgan. Ilmiy maqolada bir diagramma ishlab chiqilgan, unda yashil makonga to‘g‘ri keladigan ko‘rinishlar aks ettirilgan. Ilmiy maqolada Samarqand viloyatidagi iqtisodiy samaradorlik kategoriyalaridan rentabellik darajasi tahlillari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, loyiha, moliyalashtirish, energetika, tamoyil, zaruriyat, strategiya.

Abstract: In this article, based on the need to transition to a "green economy" in conditions of limited economic resources, a comparative analysis of the principles and implementation of the transition to a "green economy" developed by international organizations is carried out. "Green Economy" information resource and "green economy" as developing human capital current case studies "green economy" conceptualization of formation, the development of the "green economy" economy is conditioned by necessity, factors, principles and indicators are analyzed. The article presents financing of the process of transition to a "green economy", sustainable development of "green energy", environmental policy and the economic mechanism of its implementation, priorities for the transition to a "green economy" and green spaces from foreign experience in Bulgaria and Singapore, models, the goal of the strategy of transition to a "green economy" in Uzbekistan, tasks, stages of development. A scientific article has developed.

Key words: Green economy, project, financing, energy, principle, necessity, strategy and others.

Аннотация: В этой статье исходя из необходимости перехода к "зеленой экономике" в условиях ограниченности экономических ресурсов, проведен сравнительный анализ принципов и реализации перехода к "зеленой экономике", разработанных международными организациями. "Зеленая экономика" информационный ресурс и "зеленая экономика" как развивающийся человеческий капитал текущий тематические исследования "зеленая экономика" концептуализация формирования, развитие экономики "зеленой экономике" обусловлено необходимостью, анализируются факторы, принципы и показатели. Представлены финансирование процесса перехода к "зеленой экономике", устойчивое развитие "зеленой энергетики", экологическая политика и экономический механизм ее реализации, приоритеты перехода к "зеленой экономике" и зеленые насаждения из зарубежного опыта в стране Болгарии и стране Сингапур, модели, стратегии перехода к "зеленой экономике" в Узбекистане, задачи, этапы разработки. В научной статье разработана диаграмма, на которой отражены виды, соответствующие зеленым насаждениям. В научной статье представлен анализ уровня рентабельности с позитивной категорией экономической эффективности в Самаркандской области.

Ключевые слова: зеленая экономика, проект, финансирование, энергетика, принцип, необходимость, стратегия и другие.



KIRISH

O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag'al guruhlariga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'yimoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4 oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ilmiy maqolani tayyorlashda mualliflarning ilmiy izlanish natijalari bilan birgalikda, shu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar asarlaridan ham keng foydalanildi va o'rganildi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi [1] – O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni bo'lib, oliy yuridik kuchga ega siyosiy-huquqiy hujjat hisoblanadi. U dastlab 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. 2023-yil 30-aprelda esa mavjud konstitutsiyaga 27 ta yangi modda qo'shilib, umumxalq referendumini orqali yangidan qabul qilindi.

Uning IX bobi (Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar) 43-moddasida: *"Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish choralari ko'radi"* – deb belgilangan. Shu bobning 49-moddasida esa: *"Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipi asosida atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi"* – deb belgilangan.

50-moddasida esa: *"Har kim ta'lim olish huquqiga ega"* bo'lishi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4477-sonli qarorida ekologiyaga oid muammolarni milliy va xalqaro darajada baholash, ularni kun tartibiga chiqarish, "yashil" ish o'rinlarini yaratish hisobidan bandlikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishish uchun bozor mexanizmlaridan foydalanish vazifalari belgilangan [2].

Karimov X. (2020) "Kambag'allikni qisqartirishda ta'lim va malaka oshirishning ahamiyati" nomli asarida O'zbekistondagi ta'lim va malaka oshirish tizimining kambag'allikni kamaytirish hamda bandlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Yangi kasblarni o'rgatish, kasb-hunar ta'limi va malaka oshirish samaradorligi muhokama qilingan [3].

Vaxabov A.V. va Xajibakiev Sh.X. tomonidan yozilgan "Yashil iqtisodiyot" nomli darslikda [5] ushbu fan muhim masalalari interfaol va zamonaviy pedagogik uslublar asosida, tushunarli hamda ravon tilda yoritilgan. "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, unga o'tish zaruriyati, omillari, tamoyillari va indikatorlari keng tahlil qilingan.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini moliyalashtirish, "yashil energetika"ni barqaror rivojlantirish, ekologik siyosat va uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning ustuvor yo'nalishlari va xorij tajribasi, modellari, O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasining maqsadi, vazifalari, rivojlanish bosqichlari va ustuvor yo'nalishlarining mazmuni bayon etilgan. Jahon amaliyotida "yashil o'sish"ni ta'minlashning boy, ilg'or tajribasidan O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini amalga oshirish amaliyotida iqtisodiy qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan.

Ushbu darslik oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavr, magistrantlar, katta ilmiy xodim, tayanch doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar va "yashil iqtisodiyot" bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Vashalova T. V.ning "Ekologicheskie osnovy prirodopolzovaniya. Ustoychivoe razvitiye" nomli qo'llanmasida "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslarning tugashi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni kamaytirish, iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyani amalga oshirish, uglevodorod xomashyosiga va uning pirovard



mahsulot qiymatidagi ulushiga bog'liqlikni kamaytirish orqali iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, yuqori texnologiyali "yashil innovatsiyalar"ni joriy etish, past uglerodli iqtisodiyotga o'tishda energiya manbalarini diversifikatsiya qilish.

Yuqorida qayd etilganidek, jahon miqyosida "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish tashabbusi 2008 yilda UNEP tomonidan ilgari surilgan bo'lib, quyidagi umumiy tamoyillarga asoslanadi: barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuv. Bu tamoyillarning nazariy asosini Ye.R. Lindal va J.R. Xikslar tomonidan ishlab chiqilgan yalpi daromadlarning maksimal oqimi nazariyasi tashkil etadi (D.B. Smirnov, 2015). Xiks-Lindal yondashuviga ko'ra, daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi lozim. Bu esa cheklangan resurslar va ekologik (tabiiy resurslar, energiya va materiallarni tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanishni, ekologik mahsulotlar yaratishni, chiqindilarni samarali boshqarishni talab qiladi.

Ushbu masalani hal etishdagi asosiy muammo – qaysi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlab qolinishini aniqlash, shuningdek, bu kapital turlarining o'zaro almashinuv darajasi va ekologik resurslarning iqtisodiy qiymatini baholash zaruratidir.

Atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologik iqtisodiyot yo'nalishlari rivojlanishi jarayonida ushbu yondashuvlar iqtisodiy siyosatga integratsiyalashdi va "yashil iqtisodiyot" tushunchasi shakllana boshladi. Mazkur atama ilk bor 1989 yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish rejasi" nomli hukumat uchun tayyorlangan hisobotda ishlatilgan (Blueprint for a Green Economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier, Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp).

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining nisbatan to'liq ta'rif BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, "yashil iqtisodiyot" – bu inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilash, ekologik xavf-xatarlar va tanqisliklarni kamaytirishga yo'naltirilgan iqtisodiy tizimdir (Navstrechu "zelenoy" ekonomike: puti k ustoychivomu razvitiyu i iskoreneniyu bednosti / Shtayner A., Ayris R., Bessa S. va boshqalar: UNEP/Grid Arendal, 2011. – B. 17).

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor M. Pardaevning fikricha, "yashil iqtisodiyot" – bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi – ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bir qatorda, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini barqaror rivojlantirishdan iboratdir (<https://zarnews.uz/> ma'lumotlari).

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining mohiyatini yoritishda umumiy qabul qilingan yondashuvlarning mavjud emasligi ushbu konsepsiyaning hanuzgacha shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, "yashil iqtisodiyot" nazariyasi, tamoyillari yoki "yashil iqtisodiyot" siyosatiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Maqolada keltirilgan adabiyotlarda, mamlakatimiz asosiy Qomusida keltirilgan huquqiy bob va moddalardan ayrimlari keltirildi. Mamlakatimiz aholini bandligini ta'minlash, kambag'allikdan chiqarish, ta'lim tizimi va malakani oshirishni, ekologik tarbiyani kuchaytirish, havoni toza tutish, yaratilayotgan yashillikni asrash va boshqa tushunchalarni beradi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Metodologik yondashuv sifatida ilmiy maqolada kuzatish, analitik, taqqoslash va tizimli tahlil usullari qo'llanilgan. Ushbu metodologiya yordamida O'zbekistonda, jumladan, Samarqand viloyatida "Yashil makon" dasturini amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, "yashil iqtisodiyot"ni joylarda insonlar ongiga singdirish bugungi kunning zaruriyati ekanligini aniqlash, hududlar yashilligini yanada oshirish va ularni asrash natijasida yuqori iqtisodiy natijalarga erishish mumkinligini monitoring qilib borish va iqtisodiy tahlil natijalari asosida asoslashga harakat qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizning "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning zaruriy vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnika va texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

XX-asrda dunyoning tashqi qiyofasi sezilarli darajada o'zgarib ketdi. 1900 yilda dunyo aholisi 1,6 mlrd kishini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda ushbu ko'rsatkich 6 mlrd kishidan oshdi. 2017 yilga kelib esa yer yuzidagi aholi soni 7,6 mlrd kishini, 2025 yilga kelib esa 8 mlrd kishini tashkil etmoqda.



1-rasm. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari.

“Yashil iqtisodiyot”ga o’tish mamlakatlardan, yuqorida qayd etilganidek, muayyan tamoyillarga asoslanishi, strategiya yoki dasturlar doirasida maqsadli siyosat yuritishni taqozo etadi. “Yashil iqtisodiyot” doirasida amalga oshirilayotgan siyosat o’z ta’sir dastaklariga ega bo’lishi zarur (2 UNEP. (2015), Publication UNEP. United Nations Environment Program. <http://www.unep.org/climatechange/>).

Jahon amaliyotida yashil iqtisodiy siyosat doirasida qo’llanilayotgan dastaklarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: ma’muriy; iqtisodiy; axborot. Barqarorlik, adolatlilik, barcha uchun foydalanish imkoniyatining mavjudligi, sog’lom sayyora, ishtirok etish, oqilona boshqarish va shaffoflikni ta’minlash, moslashuvchanlik, samaradorlik va yetarlilik – avlodlar birdamligidir.

Yashil iqtisodiy siyosat dastaklari. Nazariy jihatdan, iqtisodiy dastaklarni qo’llash “yashil iqtisodiyot” oldiga qo’yilgan maqsadga erishish, ushbu maqsadga erishish yo’lida amalga oshirilgan umumiy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi. Bu holat iqtisodiy dastaklar qatnashchilar uchun qarorlar qabul qilishda me’yoriy dastaklarga nisbatan ko’proq imkoniyatlar yaratib berishini anglatadi.

Texnologik andozalar (standartlar) qo’llanilganda, tartibga solishdagi ustunlik faqat tartibga soluvchi muassasa tomonida bo’ladi. Bunda tartibga soluvchi kompaniyalarga atrof-muhitga zarar keltiruvchi chiqindilarni qancha chiqarish mumkinligi va ushbu ko’rsatkichga erishishda qanday texnologiyalardan foydalanish zarurligi to’g’risida xabar beradi. Natijada, kompaniyalarning ushbu masala bo’yicha qarorlar qabul qilishdagi faoliyati cheklab qo’yiladi. Amalda tartibga soluvchi muassasa kompaniyalarning atrof-muhit muhofazasi uchun mas’uliyat darajasini ushbu tadbirlar qiymatidan qat’iy nazar bixillashtirib qo’yadi.

1-jadval. Eko rivojlanish modeli:

Asosiy yo’nalishlar	Mazmuni
Yashil iqtisodiyotning maqsadi	-Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish -Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta’minlash -Barqaror iqtisodiy o’sishga erishish -Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish
Yashil iqtisodiyotga o’tish usullari	- Davlat tomonidan tartibga solish va rag’batlantirish (soliq imtiyozlari, grantlar) -Xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish -Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirish -Aholining ekologik ongi va madaniyatini oshirish
Yashil iqtisodiyotning afzalliklari	-Tabiiy resurslarni tejash va samarali foydalanish -Iqlim o’zgarishining oldini olish -Yangi ish o’rinlarini yaratish -Sog’lom ekologik muhitni shakllantirish -Iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanish



2-rasm. SamDVMChBU o'quv tajriba xo'jaligida "Yashil makon" dasturi.

2-rasmda SamDVMChBU o'quv tajriba xo'jaligida "Yashil makon" dasturi asosida daraxt ekish jarayoni.



3-rasm. Singapur davlatidagi Park Royal mehmonxonasining yashillikga o'ralgan ko'rinishi.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, aholining *yashil iqtisodiyot* tushunchasi biz kutgan darajada takomillashib borayotgani yo'q. Ekiladigan daraxtlar, manzarali yashilliklar, gullar respublikamizning, jumladan, Samarqand viloyatining hamma hududlarida ham to'g'ri yo'lga qo'yilmagan.

Yaponiya mamlakati bilan solishtiradigan bo'lsak, Yaponiya hududining 60 foizi yashillik bilan qoplangan bo'lsa, bizda esa 5,4 foiz, ya'ni 10 foizga ham yetmaydi.

Bizda tabiatni asrash, boshqaruvning ekologik tarbiya usulini barcha jarayonlarda ko'proq qo'llash maqsadga muvofiqdir.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish, "Yashil makon" dasturini amalga oshirishda mamlakatimiz miqyosida katta ishlar va samarali tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu boradagi yutuqlarni olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari va keltirilgan rasmiy materiallar asosida ham yaqqol ko'rish mumkin. Shahar va qishloqlarda ko'klamzorlashtirish, ekologik muvozanatni tiklash, atrof-muhitni obodonlashtirish bo'yicha katta sa'y-harakatlar kuzatilmoqda.

Biroq, ushbu dastur doirasidagi ishlarning sifatiga nisbatan ba'zi e'tirozli jihatlar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda bajarilgan ishlar sifatsiz bo'lib, ekilgan daraxt va ekinlarga doimiy parvarish yetishmaydi. Shuning uchun dastur samaradorligini oshirish, ekilgan o'simliklarning yashab qolish ko'rsatkichini yaxshilash, ularga doimiy agrotexnik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mahalliy jamoatchilik, yoshlik va ekologik tashkilotlarni ushbu jarayonlarga faol jalb etish lozim. Bu esa, yashil iqtisodiyotni barqaror amalga oshirishda ishtirokchilarning mas'uliyatini kuchaytiradi.

Takliflar.

"Yashil iqtisodiyot" fanini nafaqat iqtisodiyot fakultetida, balki barcha o'quv muassasalarida o'tilishini yo'lga qo'yish.

"Yashil makon" dasturini amalga oshirishda yetuk mutaxassislarning mas'uliyatini doimiy ravishda oshirib borish.

Yoshlikdan tabiatni, barpo etilayotgan yashillikni asrash imkoniyatlarini qo'llash.

Mavjud yashillikni doimiy saqlash maqsadida joylarda kuzatuv kameralarini ko'paytirish va unga ziyon keltiruvchilarga ma'muriy, zarur bo'lsa – huquqiy jazo choralarini qo'llash.

Ommaviy axborot vositalari orqali bu sohaga zarar keltirmaslik uchun ma'naviy, ma'rifiy, ekologik va huquqiy tarbiyani kuchaytirish.

Insoniyatda yashil iqtisodiyotga bo'lgan qiziqishni orttirish.

Har bir xonadonga elektr hisoblagichlarni o'rnatish va ularning xavfsizligini ta'minlash nazoratini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. 2023 yil 30 aprelda yangi tahrirda qabul qilindi. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrda "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" to'g'risidagi PQ-4477-son Qarori. *razvitiyu i iskoreneniyu bednosti / Shtayner A., Ayris R., Bessa S. I dr: YuNEP/Grid Arendal, 2011. C. 17.*
2. Greening the Global Economy. Hardcover- November 13, 2015. – 176 p.
3. A.E.Ergashev va b. – T.: Baktria. Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari. Darslik. press, 2016.-296b.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X. Darslikda "Yashil iqtisodiyot" Toshkent.: "Universitet", 2020. -262 b. .
5. Jo'raev T.T., Jumanov D "O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollari" nomli ilmiy maqola. Manba: "Jahonda barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini amalga oshirish mexanizmi va dastaklari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.-T.: "Universitet". 2018. 239 b. -20 b.
6. Yormonqulova, N. (2024). Iqtisodiy o'sish omillarini takomillashtirish va barqaror rivojlanishga erishish. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 10(10), 109–112. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.922>.
7. Salamov, I., Javmanov, J., Ummatov, B., & Bekpolatov, S. (2024). Raqamli iqtisodiyotning o'rni va joriy etishdagi imkoniyatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
8. Salamov, I., Nurmanov, S., & Hotamov, A. (2024). Chorvachilik tarmog'ida mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkoniyatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
9. Ahmatova, Q., Sunnatullayev, M., & Salamov, I. (2024). Bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishni yuzaga keltiruvchi sabablar hamda ularning yechimi. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
10. Internet saetlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
